E-ISSN : 2181-4341
https://wordlyknowledge.uz
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934

BOSHLANG'ICH SINFLARDA OT SO'Z TURKUMIDA KELISHIKLAR USTIDA ISHLASH METODIKASI

Ergashova Mehriniso Husniddinovna
Buxoro davlat pedagogika instituti Boshlanğich ta'lim yõnalishi 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich ona tili va o'qish savodxonligi darslarining izchil kurslarida ot so'z turkumi haqida beriladigan bilim, uni o'qitish usullari to'g'risida fikr va qarashlar o'z ifodasini topgan. Ushbu maqola kelishiklar va metodlar haqida nazariy bilim berish bilan birgalikda amalda qo'llash yo'l-yo'riqlaridan iboratliligi, topshiriqlar asosida ochib berilganligi bilan dolzarbdir. Metodlar boshlang'ich sinflari to'rt bosqichi doirasida olingan.

Kalit so'zlar: Kelishik, taqqoslash, ongli, qo'shimcha, amaliy, sintaktik kategoriya, forma, yasovchi, turlanish, egalik, bog'lanish, izchillik, grammatik bilim, kompleks, material, nutq, imlo, vazifa.

Kelishik ot so'z turkumiga mansub bo'lib, sintaktik kategoriya hisoblanadi. Shu bilan birgalikda kelishiklar ot so'z turkumidagi so'zlarning gapda boshqa so'zlar bilan o'zrao munosabatini ifodalaydi. Bu ot so'z turkumini o'rganishdagi muhim jarayon bo'lib, ular ustida ishlash boslang'ich sinf o'quvchilari gapda bog'lagan so'zlarni ya'ni so'z birikmalarini ajratishga o'rganganlaridan so'ng boshlanadi. Bu jarayon(kelishiklar ustida ishlash) gapda so'zlarning bog'lanishini o'rganish ustida ishlash hamdir. Ilmiy kuzatish va tajribalar shuni ko'rsatadiki, ot so'z turkumini o'rganish izchil va maqsadga yo'naltirilgan jarayondir. Kelishiklar ustida ishlash esa shu maqsadga yo'naltirilgan jarayonning ajralmas qismi bo'lib, kelishiklarni o'rgatishda o'quvchilarning gapda so'zlarning bog'lanishini bilishlari nazarda tutiladi. Ot gap tarkibida boshqa so'zlar bog'langanda qo'shimchalar bilan o'zgarishi ancha oldindan kuzatib boriladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari birinchi sinfning o'zidayoq so'z ma'nolarining o'zgarib borishini kuzatib, amaliy jihatdan bilimlar ola boshlaydilar. Ammo o'sha davrda ularga so'z formasi tushunchasi notanish holatda bo'ladi. Bolalar keying bosqichlarda esa forma yasovchi, ya'ni so'z o'zgartiruvchi qo'shimchalarini tushunib, qo'llay oladilar. Bu qo'shimchalarning asosiy vazifasi gapda so'zlarni bog'lash uchun xizmat qilishi bilan tanishadilar. Kelishik kategoriyasi ustida ishlashning asaosiy davri uchinchi sinfni qamrab oladi. Uchinchi sinfda ot so'z turkumi ustida ishlashning asaosiy qismi fikrlarni bayon qilishda ot so'z turkumining kelishik formalaridan ongli ravishda foydalanish va kelishik qo'shimchalari bilan bog'liq imlo qoidalariga asoslanadi. Bu sinfda ot so'z turkumini o'rganish quyidagi izchillik asosida tashkillashtiriladi:

1. Ot so'z turkumidagi so'zlarning kelishik kategoriyalari vositasida turlanishi;
2. Ko'plik shaklini olgan ot so'z turkumidagi so'zlarning turlanishi haqida ma'lumot berish;
3. Har bir kelishik xususiyatlarini alohida-alohida o'rganish. U xususiyatlar bilan bog'liq holda kelishik qo'shimchalarining yozilishi haqida ko'nikmalar hosil qilish.

Ot so'z turkumidagi so'zlarning kelishik qo'shimchalarini olish jarayonida yuz beradigan hodisa turlanish hodisasi haqida tushunchalar berish bilan o'quvchilarga kelishik kategoriyalari gap tarkibida, asosan, so'zlarni bir-biri bilan boglash uchun xizmat qilishi, o'zbek tilshunosligidagi oltita kelishik bilan birgalikda ularning nomlari, ularning so'roqlari, qo'shimchalari va qanday shaklda joylashish tartibi tushuntiriladi. O'quvchilar bu jarayonda turlanish hodisai bilan kelishiklarning xususiyat va mohiyatlaridan kelib chiqib gap tarkibini tahlil qilish jarayonida tanishtiriladilar. Gap asosiy, ya'ni ega va kesim, so'z birikmalari kabi qismlarga ajratiladi. O'quvchilar bu jarayonda o'zlashtirgan grammatik bilimlarini imlo qoidalarini o'zlashtirishda foydalana olishlari uchun ishni bajarishda izchillikka katta ahamiyat beriladi. Bu davrda boshlang'ich sinf o'quvchilari quyida ko'rsatilgan ikki muhim narsani bilib oladilar:

1. Gapda ot so’z turkumiga mansub bir so’zning boshqa har xil so’zlar orqali forma yasovchi qo’shimchalar ya’ni kelishik qo’shimchalari yordamida bog’lanishini kuzatadilar;
2. Bu qo’shimchalarning kelishik qo’shimchalari guruhi ostida birlashishi va bu guruhdagi qoshimchalari asosida turlanish hodisasi ro’y berishini bilib oladilar.

Boshlang’ich sinf oquvchilarga kelishiklarning quyidagi muhim xususiyatlari o’rgatiladi:

1. Kelishiklarning joylashish tartibi;
2. Kelishiklar qabul qiluvchi so’roqlar;
3. Kelishik turlari va bosh kelishikdan tashqari barcha kelishiklarning qo’shimchalari mavjudligi.

Bu ma’lumotlar maqsadga yo’naltirilgan izchil jarayonda jadval yoki klaster asosida tushuntirib beriladi. Kelishik turlari gap tarkibida bajarib keladigan vaziafalar(bosh kelishikdagi so’zlar ega, qolgan kelishik shakllarini ifodalagan so’zlar esa ikkinchi darajali bo’laklar vazifasini bajarib keladi) o’rgatiladi. O’quvchilarga murakkablashtirmagan holda kelishik qo’shimchalarini o’rgatishda o’quvchilar avval gap tarkibida ot so’z turkumidagi so’zga bog’langan so’zdan shu otga savol beradilar. Savolni esa so’z yonidan qavs ichiga yozadilar. So’ngra so’roqqa qarab kelishik turini aniqlab oladilar. Masalan, o’qiydi(qayerda?)-maktabda(o’rin-payt kelishigi). Ular bu ma’lumotlarni yaxshi o’zlashtirganlaridan so’ng mashq bajarish ko’nikmalari tezlashadi. Yozish talab etilmaydi. Ko’plik shaklda qo’llanilgan ot so’z turkumidagi so’zlarning turlanishini o’rganish jarayonida nutqda ko’plikdagi otlarda o’rinli foydalanish ko’nikmasini takomillashtirish maqsadi ko’zda tutiladi. Bu maqsadli jarayon qyidagi ushbu ko’rsatmalar orqali amalga oshiriladi:

1. Bu jarayonda o’qituvchi darsda suhbat metodidan samarali foydalanadi. Suhbat yordamida o’uvchilardan bosh kelishikdagi so’zning so’rog’I aniqlanadi.
2. Undan so’ng bu bitta predmetni anglatib kelayotgani aytiladi. Ya’ni nima?-qalam, kim?-bog’bon.
3. Agar shu ikki ot bitta emas, ikki yoki undan ortiq predmetni bildirsa, qanday so’roqqa javob bo’lib, qaysi kelishik shaklini ifodalashini so’raydi.

Yuqorida ko’rsatilgan asosli ko’rsatmalar orqali shunday xulosa chiqariladi: ko’plik shakli bilan ifodalangan bosh kelishikdagi so’zlar kimlar?, nimalar?, qayerlar? Kabi so’roqlarga javob bo’ladi. Boshlang’ich sinf o’quvchilariga kelishik kategoriyalari haqida chuqur ma’limot berilmasa-da, kelishikning har bir shakli alohida-alohida o’rgatiladi. Chunki bunda imlo qoidalarini o’rganish ham parallel ravishda olib boriladi, ya’ni kelishik qo’shimchalarining qo’llanish tartibi va xususiyatlari bilan bir birga qo’shimchalarning yozilish haqidagi malakani shakllantirish va o’quvchilarning kelishiklar bilan turlangan otlardan ongli foydalanishlariga erishish hisoblanadi. Gap kelishiklari aniqlashda so’roqlardan foydalanish katta yordam beradi. Ammo bu uchun o’quvchilar quyida keltirib o’tilgan talablarni o’zlashtirgan bo’lishlari kerak:

1. So’roq berishda faqat ot so’z turkumidagi so’zgagina emas, balki gap tarkibida ot mana shu tomondan bog’langan so’zga bera olishlari;
2. Kelishiklarning so’roqlarini yaxshi o’zlashtirgan bo’lishlari:
3. Kelishiklarni o’zlashtirsih jarayonida gapning asosini aniqlagandan so’ng gap tarkibida o’zaro bog’langan so’zni topib, so’roq berib va shu asosda qaysi kelishik bilan turalanganini bilishlari maqsadga muvofiqdir.

Bunga bir misol orqali izoh kiritib, ilmiy jihatdan asoslash mumkin. Masalan, Umida Bahorani sayrga taklif qildi gapida asosiy ma’no Umida haqida ketyapti. Kim?-Umida; ega, bosh kelishik, birlik shaklda. Umida(nima qildi?)_taklif qildi-kesim: taklif qildi(kimni?)-Bahorani(ot, tushum kelishigida ifodalangan, birlik shaklda). Kelishiklarni o’rganish jarayonidagi eng maqsadga muvofiq yo’l uni reja asosida o’rganishdir. Kelishik kategoriyasi ko’rsatib o’tilgan rejali tarzda o’rganish ularni o’zaro taqqoslashni yengillashtiradi va ongli o’zlashtirishni ta’minlab turadi. Kelishik shakllariga xos xususiyatlar har biri alohida o’rganiladi. Bosh kelishik xususiytalarini o’rgatish quyidagicha tashkil qilinadi:

E-ISSN : 2181-4341
https://wordlyknowledge.uz
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934

1. Agar ot so’z turkumidagi so’zning tarkibidagi qo’shimchasi yoq bo’lsa, bosh kelishik hisoblanadi. Belgili va belgisiz holatlar bundan mustasno. Chunki bu ma’lumotlar boshlang’ich sinf o’quvchilari o’zlashtirishi kerak bo’lgan bilim sirasiga kirmaydi.
2. Ot boshqa so’zni o’ziga tobe qilishi va kim?, nima?, qayer?(-lar) so’roqlariga javob bo’lishi haqida ko’nikma va tushunchalar hosil qilinadi.

Boshlang’ich sinf o’quvchilari bu jarayonda qiynaladigan holatlar ham mavjud. Ular qaratqich va tushum kelishik shakllarini bir-biridan farqalashdir. Bu holatda ilmiy kuzatishlar shuni ko’rsatadiki, bir qo’shimchaning o’rniga ikkinchisini ishlatadilar. Bu kelishiklarning o’ziga xos xusiyatlarini o’rganishda bunday qiyinchiliklarning

oldini olishning birdab-bir muhim chorasi ikki kelishik ifodalaydigan ma’no, ularning so’roqlari va qo’shimchalari taqqoslash asosida o’rganilib, oxirida tushunarli, qisqa xulosa chiqarish lozim. Qaratqich kelishigining o’ziga xos xususiyatlari mavjud. Qarashlilik ma’nosini ifodalaydi, gapda u bog’lagan ot egalik qo’shimchasi asosida qo’llanadi. O’quvchilarning bu ikki kelishik haqidagi bilimlarini mustahkamlash, qo’shimchalarini to’g’ri qo’llash ko’nikmalarini shakllantirish, nutqda to’g’ri foydalanish uchun otning qaysi so’z bilan bog’langanini anqilash kerak. Biz o’ylaymizki, Kelishik qo’shimchalari tushurib qoldirilgan mashqlar asosida ularga ko’nikma shakllantirish yaxshi samara beradi.

Xulosa. Shunday qilib, boshlang’ich sinflarda ot kompleks ravishda o’rganiladi va uning o’ziga xos xususiyatlari(kelishik kategoriyasi kabi)ni o’rganish o’quvchilar shu so’z turkumining belgilarini, funksiyasini o’zlashtirishga, shuningdek ularda kelishik qo’shimchalarini to’gri qo’llash va yozish ko’nikmasini shakllantirishga e’tibor qaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “Ona tili o’qitish metodikasi” K. Qosimova
2. Ona tili va o’qish savodxonligi 1-4-sinf darsliklar
3. Ona tili o’qitish metodikasi fanidan o’quv-uslubiy qo’llanma.

WORDLY
KNOWLEDGE